XALQ DEPUTATLARI QIZILTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 24-may VI-56-45-5-72-K/24 Qiziltepa tumani

Tuman hududida og‘ir yuk ko‘taruvchi avtotransport vositalarining gabarit o‘lchovini cheklovchi temir to‘sinlar o‘rnatish to‘g‘risida

Qiziltepa tuman hududidan o‘tuvchi, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan 4R63 “Kogon.sh - Kuymozor suv ombori - Qiziltepa.sh - Toshrabot.q - Arabsaroy.q - Yangiqo‘rg‘on.q” avtomobil yo‘li, 4R65 “4R63 avtoyo‘li(49km) - Azizobod.q - Kogon.sh” avtomobil yo‘li, 4R208 “Qiziltepa.sh - O‘rtacho‘l.q - Xurason.q - To‘dako‘l ko‘li” avtomobil yo‘llari oxirgi yillarda respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan ta’mirlangan. Mazkur avtomobil yo‘llari belgilangan me’yor talablari asosida yakka o‘qqa tushadigan og‘irlik 6-8 tonnaga mo‘ljallab qurilgan.

Hozirgi kunda ushbu avtomobil yo‘llari orqali, yakka o‘qqa tushadigan og‘irlik belgilangan me’yor talablaridan yuqori bo‘lgan og‘ir yuk ko‘taruvchi avtotransport vositalari (*ushbu avtotransport vositalarining yakka o‘qqa tushadigan og‘irligi 13 tonnadan yuqori*) doimiy harakatlanib kelmoqda. Buning natijasida ta’mirlangan avtomobil yo‘llarining qisqa fursatlarda yaroqsiz holatga kelishi va bu orqali byudjetdan ajratilgan milliardlab mablag‘larning isrof bo‘lishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

Mazkur salbiy holatlarni oldini olish borasida O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktyabrdagi “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi 117-sonli Qonunning “Yo‘l tashkilotlarining huquq va majburiyatlari to‘g‘risida”gi 16-moddasida (*Noqulay ob-havo-iqlim sharoitlarida, tabiiy ofatlar, yong‘inlar yuz berganda, avtomobil yo‘li ko‘tarish qobiliyatini yo‘qotganda va boshqa shunga o‘xshash hollarda, shuningdek ta’mirlash-qurilish ishlari olib borilayotganda yo‘l tashkilotlari mahalliy davlat hokimiyati organlariga bu haqda bildirgan, avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilish bilan xabardor qilgan hamda tegishli belgilar o‘rnatgan holda O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo‘linmalari bilan birgalikda transport vositalari harakatini cheklash yoki taqiqlash huquqiga ega)*batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, shuningdek, tuman TYFDM boshlig‘ining 2024-yil 13-apreldagi 01-15-07/137-sonli xatiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 2-oktyabrdagi “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi 117-sonli Qonunning 16-moddasi, tuman TYFDM boshlig‘i J.Majidovning

2024-yil 13-apreldagi 01-15-07/137-sonli xati hamda tegishli tashkilotlarning xulosalari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidan o‘tuvchi davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan 4R63 “Kogon.sh - Kuymozor suv ombori - Qiziltepa.sh - Toshrabot.q - Arabsaroy.q -Yangiqo‘rg‘on.q” avtomobil yo‘lining **20- va 64-km.lardagi**, 4R65 “4R63 avtoyo‘li (49 km) - Azizobod.q - Kogon.sh” avtomobil yo‘lining **26-km.dagi**, 4R208 “Qiziltepa.sh - O‘rtacho‘l.q - Xurason.q - To‘dako‘l ko‘li” avtomobil yo‘llarining **3-km 700 pk.dagi** ko‘priklarga chiqish joylarida og‘ir yuk ko‘taruvchi avtotransport vositalarining gabarit o‘lchovini cheklovchi temir to‘sinlar o‘rnatish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (X.Aliyev), tuman TYFDM boshlig‘i (J.Majidov) hamda tegishli korxona va tashkilot rahbarlariga:

yo‘l belgilari o‘rnatilishi avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash, doimiy ravishda nazorat qilib borish hamda harakatlanishga ruxsat etilgan avtotransport vositalarining ko‘rgazmalari o‘rnatishi vazifalari yuklansin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizliigi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari va yo‘l chiziqlariga amal qilishlari shuningdek, berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishi doimiy nazoratga olinsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini tuman hokimi o‘rinbosari (X.Aliyev) hamda qarorni ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi (G‘.Safarov) zimmalariga yuklansin.

6. Qaror rasman imzolangan kundan e’tiboran uch oydan so‘ng kuchga kiradi.

Sessiyada raislik qiluvchi BOBOJONOV ULUG‘BEK RAXIMOVICH